subyektlarini faoliyati bo'yicha tashqi va ichki muhitining tabiatiga ta'sir qiladi. Davlat va xususiy tadbirkorlik hamkorligini rivojlantirishning noiqtisodiy shart-sharoitlari esa respublikadagi siyosiy-ijtimoiy vaziyatni aks ettiradi.

Shuningdek, shart-sharoitlar ham ijobiy va salbiy tavsifga ega bo'lishi mumkin. Ijobiy tavsifdagi shart — sharoitlar davlat va xususiy tadbirkorlik o'rtasidagi hamkorlik munosabatlaridan foydalanishning iqtisodiy samarasini oshirib, uning salohiyatini rivojlantirsa, salbiy jihatlari bu hamkorlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Masalan, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklik munosabatlarini shakllantirish uchun qulay shart — sharoitlarning yaratilishi raqobat muhitining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bunda turli korxonalar sherikligida qatnashish uchun teng imkoniyatlar mavjud, chunki faqat sog'lom raqobat xususiy sektorning samaradorligi va faolligini oshiradi. Shuning uchun ijro etuvchi davlat hokimiyati organlari xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun raqobatchilik muhitini shakllantirishga ko'maklashi zarur.

Iqtisodiy tizimda sheriklik munosabatlarining muvaffaqiyatli realizatsiya qilinishi istiqbolli va barqaror bozor konyunkturasi, barqaror me'yoriy baza, fuqarolik jamiyatining tadbirkorlik layoqati, davlat hokimiyati organlari mutaxassislarining malaka darajasi hamda ilmiy — tadqiqot, innovatsion, ishlab chiqarish faoliyatining rivojlanishi va va inson salohiyatini oshirishga ko'maklashadi.

Mamlakatimizda DXSH siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda barcha tegishli davlat organlarini jalb qilish muhim hisoblanadi. Bunda turli vazirliklar (transport, iqtisodiyot va moliya, uy-joy-kommunal xo'jaligi, energetika, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqalar)ning vakillari orqali ularni amalga oshirish bo'yicha umumiy yondashuvni ishlab chiqish maqsadida DXShlardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash zarur. Hukumat doirasidagi muvofiqlashtirish va hamkorlik DXSH siyosatini samarali amalga oshirish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Agar mahalliy hokimiyatlar darajasida muayyan sektorning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lsa, o'zaro muvofiqlik va mas'uliyatni aniq taqsimlashni ta'minlash uchun tegishli choralar ko'rish lozim.

DXSH siyosatini ishlab chiqishda manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashish muhim ahamiyatga ega. DXSH siyosati turli siyosiy loyihalar va rejalarga ta'sir qilishi mumkinligini hisobga olsak, barcha manfaatdor tomonlar va iste'molchilarga siyosatni ishlab chiqish va qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish imkoniyatlarini ta'minlash zarurdir.

Eng muhimi, yuqori natijalarga erishish real bo'lgan DXSH mexanizmlari va tarmoqlaridan foydalanishning qonuniyligini aniqlashdir. Demak:

a) loyiha bir vaqtning o'zida ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojni tan oladigan va ko'pchilik siyosiy fikrlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan loyiha bo'lishi kerak;

b) bozorni izlash va DXSH loyihasiga potensial sheriklarni jalb qilish uchun allaqachon ma'lum va tasdiqlangan texnologiyalardan foydalanish zarur;

c) loyihaning qiymati shaffof va homiy vazirlik yoki agentlik uchun maqbul bo'lishi kerak. Loyiha xalqaro sarmoyadorlar va imtiyozlar olishga qiziqqan korxonalarning qiziqishini jalb qilish uchun ahamiyatli bo'lishi kerak.

d) loyihaning qiymati nafaqat maqbul bo'lishi kerak: mas'ul organ kreditga layoqatli bo'lishi kerak (yoki kreditlashning moslashuvchan mexanizmi mavjud bo'lishi lozim).

Loyihani amalga oshirishda hukumat va xususiy sektor o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi bo'lishi mumkin, shuning uchun muammolarni hal qilish uchun norasmiy muloqot

mexanizmini yaratish muhim ahamiyatga ega. Hukumat amaldorlari va manfaatdor tomonlar ochiq munozaralar o'tkazishi mumkin bo'lgan munozara forumlarini tashkil etish orqali muammolar va keskinliklarni jiddiy mojarolarga aylanib ketishidan oldin olishi mumkin.

DXSH siyosatining bir qismi dasturning afzalliklarini tushuntirib beruvchi va ommaviy axborot vositalarida yoki boshqa joylarda DXShlarni asossiz tanqid qilishning oldini oluvchi strategik aloqa rejasini o'z ichiga olishi kerak. Loyihadan oldingi tadbirlarni amalga oshirayotganda DXSH tashabbuskorlari, ayniqsa, aholining iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari uchun transport vositalarini kamaytirish yoki kelajakdagi iqtisodiy foyda va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish kabi masalalarni ta'kidlashda erkin hisoblanadilar.

DXShni amalga oshirish siyosati uslubiy jihatdan ta'minlanishi va investorlar uchun ishonchlilikni kafolatlashi kerak. Axborot qo'llab-quvvatlashi investorlarni rag'batlantirishi mumkin bo'lgan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash turlari aniq bo'lishi kerak. Bundan tashqari, xususiy sheriklar va boshqaruvchi kompaniyalarning potensial loyiha va dasturlarni amalga oshirishga tayyorligini kafolatlash uchun loyihalar bozorga izchil kirib borishi zarur.

Mamlakatimizda DXSH dasturlari nisbatan yangi jarayon bo'lib, hukumatlar yaxshi ishlaydigan umumiy siyosatni amalga oshirishi mumkin bo'lgan xalqaro mexanizm hali mavjud emas. DXSH dasturlarining ahamiyati ortib borayotganini hisobga olib, DXSH bo'yicha tajriba almashish va DXShni amalga oshirish siyosatini shakllantirish mumkin bo'lgan xalqaro forumlar yaratishga rag'batlantirish zarur hisoblanadi.

Amaliy tajribalarning ko'rsatishicha, DXSH mexanizmini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar: raqobat muhitining shakllanmaganligi, muhim siyosiy va iqtisodiy risklar, mehnat resurslarining malakasining pastligi, korrupsiya kabilar hisoblanadi.

Respublikamizda ovqatlanish xizmatlari sohasida DXShni rivojlantirishda DXShning mavjud shakllari samaradorligini oshirish va ushbu hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlarini joriy etishga yordam beradigan omillarni aniqlashdan iboratdir.

DXShni ovqatlanish xizmatlari sohasida institutsional jihatdan ta'minlash uchun hamkorlikni boshlash va qo'llab-quvvatlash shakllari, usullari va ustuvor tarmoqlarini aniqlash hamda qo'shma loyihalar, hamkorlar o'rtasida shartnomaning namunaviy shakllarida davlatning biznes bilan qo'shma faoliyatini ma'muriy reglamentlarini ishlab chiqish zarur.

Iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida DXShning yangi shakllarini ommalashishiga to'siq bo'luvchi omillar sifatida xizmat ko'rsatish sohasida qulay ishbilarmonlik muhiti hamda tadbirkorlik madaniyatining yetarli darajada emasligi hisoblanadi.

Shunday ekan, iqtisodiy rivojlanishning bozor modeliga o'tish muammolarini hal qilish uchun innovatsion-texnologiya sohalarini qayta yaratish va shakllantirish, qo'shimcha ravishda ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, innovatsion infratuzilmani tashkil etish zarur. DXSH loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes subyektlari shakllanishi uchun ijobiy shart — sharoitlarni ta'minlashga ko'maklashmoqda.

Bizning fikrimizcha, ovqatlanish xizmatlari sohasida ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish yo'nalishida tadbirkorlik infratuzilmasini, moliya institutlarini rivojlantirish, ma'muriy to'siqlarni kamaytirishni nazarda tutuvchi samarali davlat siyosatini amalga oshirish lozim. DXShni rivojlantirish unga ta'sir qiluvchi ijobiy va salbiy omillar bilan belgilanadi.

Bizning fikrimizcha, respublikamizda ovqatlanish xizmatlari sohasida DXShni jadal rivojlanishida mavjud institutsional cheklovlar quyidagilardan iborat:

- DXSH mexanizmini shakllantirish va realizatsiya qilish hamda ularni tizimli amalga oshirish bo'yicha dasturlar va maqsadli rejalarining ishlab chiqilmaganligi;
- sheriklik munosabatlarini tartibga solish bo'yicha tegishli boshqaruv apparatining yo'qligi;
- investitsion loyihalarni tender asosida realizatsiya qilish bo'yicha korrupsion holatlarning mavjudligi;
- jamoat huquqi institutlari va jamoat mulkining shakllanmaganligi.

Shuningdek, respublikada davlat va xususiy tadbirkorlik munosabatlarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar: ishbilarmonlik muhitining yetarli darajada shakllanmaganligi, korrupsiyaning yuqori darajasi, fuqarolik-huquqiy munosabatlar samaradorligining pastligi kabilarda iborat.

Shunga asoslangan holda, DXSH mexanizmini samarali amal qilishi uchun ijobiy muhitni yaratish maqsadida davlat va biznes o'rtasida bunday hamkorlikning institutsional asoslarini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish, korrupsiyaga qarshi samarali siyosatni amalga oshirish hamda umumiy loyihalarning shaffofligini ta'minlash zarurdir. Bunda asosiysi mazkur loyihalar ustidan ijtimoiy nazoratni ta'minlaydigan jamoatchilik nazorati institutlarini rivojlantirish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi «Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida»gi qonunga muvofiq bitim doirasida xususiy sherikning va (yoki) kreditorning (kreditrlarning) manfaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi qo'llab-quvvatlashning quyidagi turlarini taqdim etishi mumkin[8]:

- subsidiyalar, shu jumladan xususiy sherikning davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishdan oladigan, kafolatlangan eng kam daromadini ta'minlashga yo'naltiriladigan subsidiyalar;
- davlat — xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan aktivlar va mol — mulk tarzidagi qo'yilmalar;
- davlat — xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish jarayonida ishlab chiqarilgan yoki yetkazib berilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) muayyan miqdorini yoki bir qismini iste'mol qilganlik yoki ulardan foydalanganlik uchun to'lovga yo'naltiriladigan O'zbekiston Respublikasi budjeti tizimining budjetlar mablag'lari;
- budjet ssudalarini, qarzlarini, grantlarini, kredit liniyalarini va moliyalashtirishning boshqa turlarini berish;
- investorlar tomonidan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida o'zaro kelishuvga ko'ra qo'shimcha kafolatlar;
- soliq imtiyozlari va preferensiyalari, shuningdek boshqa imtiyozlar;
- boshqa kafolatlar va (yoki) kompensatsiyalar.

Qo'shimcha kafolatlar berish va (yoki) qo'llab-quvvatlash O'zbekiston Respublikasi bilan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida bitim tuzish orqali yoki davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi[9].

O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga bevosita yoki bilvosita ta'sir etadigan qo'shimcha kafolatlarning va (yoki) qo'llab-quvvatlashning har qanday turlari davlat — xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasi tasdiqlanguniga qadar O'zbekiston Respublikasi Moliya

vazirligi bilan kelishib olinishi kerak. Soliq imtiyozlari va preferensiyalari O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda belgilanadi. Alohida hollarda, davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlar doirasida jalb etiladigan chet el investitsiyalari ishtirokida amalga oshiriladigan davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlarining chet el valyutalariga va shartli birliklarga bog'lanishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida yo'l qo'yiladi [10].

DXShni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning yana bir muhim yo'nalishi – DXSH loyihalariga xususiy investitsiyalarni himoya qilish zarurligi hisoblanadi. Xususiy sherikning, shuningdek, loyiha kompaniyasining mulkini milliyalashtirish va boshqa chora-tadbirlardan himoya qilish maqsadida respublikada davlat kafolatlari belgilandi. Biroq, investitsiya davlat manfaatlarini ko'zlab, ammo o'z vaqtida to'lash va investor tomonidan yetkazilgan zararni tegishli ravishda qoplash bilan ekspropriatsiya qilinishi mumkin bo'lgan istisno holatlari ham mavjud.

Shuning uchun kompensatsiya ekspropriatsiya qilingan investitsiya yoki uning bir qismi bozor narxiga ekvivalent bo'lishi zarur bo'lib, u yo'qotilgan foydaga va ekspropriatsiya to'g'risida qaror qabul qilingan sanada kiritiladi. Bundan tashqari, agar investorda uning investitsiyalarini baholash va kompensatsiya to'lashni o'z ichiga olgan ekspropriatsiyaning ta'siri to'g'risidagi da'vo mavjud bo'lsa, investorning ishini sud organi yoki boshqa vakolatli davlat organi tomonidan tezroq ko'rib chiqish huquqiga ega.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" 2018-yil 20-oktabrdagi PQ-3980-son qarori ijrosini hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat — xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi faoliyatini samarali tashkil etishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 12-dekabrda 1009-son "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq agentlikning boshqaruv tuzilmasi va Nizomi ishlab chiqilgan[11].

Ushbu qarorda "agentlik boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 30 nafardan iborat tuzilmasi"[12] keltirib o'tilgan va ishlab chiqilgan Nizom asosida agentlikning maqsad va vazifalari hamda faoliyat yo'nalishlari keltirib o'tilgan.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarga asoslangan holda qo'yidagi xulosalarni ishlab chiqdik:

1. DXSH shaklida o'zaro munosabatlarni amalga oshishi davlat va xususiy hamkorlarning DXSH loyihalarini realizatsiya qilish natijasida o'zlari uchun olishi mumkin bo'lgan potensial foyda va ustunliklardan iborat. Bunda agentlik faoliyatining tarkibiy tuzilmasiga muvofiqlashtirish maqsadida DXSH kuzatuv kengashini kiritish, investitsiyalar bo'yicha maslahat bo'limi va strategik rejalashtirish va marketing tadqiqotlari bo'limini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

2. Bugungi kunda iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida davlat va xususiy tadbirkorlikning roli to'g'risida fikr — mulohazalarga asoslangan holda DXSH mexanizmini realizatsiya qilish respublikani strategik rivojlantirishda ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

3. Respublikada DXSH mexanizmini rivojlantirish jarayoni bosqichma -bosqich amalga oshirilishi hamda har bir bosqichning natijalari alohida tadqiq qilinishi lozim. Shuningdek,

birinchi bosqichda DXShning bir nechta asosiy loyihalarini realizatsiya qilish zarur va buning uchun esa eksperimental loyihalarning risk darajasini pasaytirish maqsadida ular qisqa muddatli o'zini-o'zi qoplash muddatlari bilan yuqori bo'lmagan qiymatlarda bo'lishi kerak.

4. Jamoatchilik, xususiy sektor vakillari, mahalliy davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqarish organlariga DXShning mohiyati, undan foydalanish mexanizmlari va amaliyoti, bu bo'yicha boshqa davlatlar tajribasi hamda mavjud ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni o'rganish imkoniyatini ta'minlash kerak. Shunga asoslangan holda, respublikada zamonaviy ishlab chiqarish, iqtisodiy va moliyaviy munosabatlarga ishonchni ta'minlash maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali faoliyatni kuchaytirish zarur.

5. Loyihalarni baholash mezonlari ichida diqqat markazida ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lgan va xizmatlarning asosiy iste'molchilari bo'lgan aholi manfaatlarini inobatga oluvchi aniq DXSH loyihalariga qaratilishi kerak.

Bunda loyihani amalga oshirish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilishi hamda DXSH loyihalarini realizatsiya qilish natijalari to'g'risida obyektiv ma'lumotlar taqdim etilishi juda muhim hisoblanadi. Shunga ko'ra, natijalarni baholash va monitoring qilish mustaqil nodavlat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishi kerak.

6. Respublika sharoitida loyihalarning ijtimoiy ahamiyatini hisobga olgan holda, xususiy tadbirkorlarni rag'batlantirish maqsadida ularga amalga oshirish muddati kamida 3-5 yil qilib berilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-apreldagi 259-sonli «Davlat — xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq: DXSH loyihasining konsepsiyasi – davlat sherigi va (yoki) xususiy tashabbuskor tomonidan tayyorlanadigan, DXSH loyihasini amalga oshirishni hal etishga doir tanlovni asoslab beradigan, ushbu loyihaning qiymatini va tavsifini belgilaydigan, uni amalga oshirishning samaradorligi va dolzarbligi asoslarini, asosiy tavsifnomalari va o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, jalb qilinadigan investitsiyalarning qaytarilishini ta'minlash mexanizmlarini o'z ichiga olgan hujjat hisoblanadi[13].

Bizning fikrimizcha, ovqatlanish xizmatlari sohasida umumiy holda DXSH loyihalarini rejalashtirish, ishlab chiqish, tashkil etish va amalga oshirish jarayoni to'rtta bosqichdan iborat bo'ladi (1-jadval).

1-jadval

Ovqatlanish xizmatlari sohasida DXSH loyihalarini rejalashtirish, ishlab chiqish, tashkil etish va amalga oshirish bosqichlari¹

№	Bosqichning tavsifi	DXShni amalga oshirish mazmuni
1.	Strategik rejalashtirish	Mazkur bosqich xususiy sherikni jalb qilish orqali loyihani realizatsiya qilishning makroiqtisodiy imkoniyatlari va budjet samaradorligi tahlili asosida viloyat, shahar, tuman va tarmoq rivojlanish strategiyasini realizatsiya qilish uchun DXShdan foydalanishning maqsadga muvofiqligi va imkoniyatlarini o'z ichiga oladi.

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2.	Loyihani tayyorlash jarayoni	Ushbu bosqichda xususiy sherik erishishi kerak bo'lgan sifat va samaradorlikning maqsadli mezonlarini aniqlash, loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, xususan, shartnoma va boshqa zaruriy kelishuvlar, qonunchilik tizimdagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ijro etuvchi hokimiyat organlarining shartnoma shartlarini bajarilishini ta'minlash bo'yicha boshqa normativ aktlar hisobga olinadi. Shuningdek, potensial realizatsiya qilinadigan loyihada ishtirok etish haqida qarorlar qabul qilish uchun zaruriy bilimlar hajmini potensial hamkorga taqdim qilish, loihaning axborot paketini shakllantirish hamda xususiy sherikni tanlash maqsadida tanlov o'tkazish uchun hujjatlarni ishlab chiqish.
3.	Qarorlarni asoslash va qabul qilish	Bu bosqich mahalliy davlat hokimiyati organlari uchun zarur loyihani realizatsiya qilish haqida qarorlarni asoslash va qabul qilish.
4.	DXSH loyihasini realizatsiya qilish qarorini bajarilishi	Ushbu bosqichda DXSH loyihasida moliyaviy resurslarni jalb qilish masalalari bo'yicha moliya-kredit tashkilotlari bilan xususiy sherikni kelishuvda ishtirok etishi, xususiy sherikni tanlash bo'yicha tanlov natijalari asosida DXShni tanlangan loyihasini realizatsiya qilish to'g'risida qarorlar qabul qilinadi.

Yuqorida keltirilgan bosqichlarni amalga oshirish jarayonida milliy iqtisodiyot darajasida DXSH modelini realizatsiya qilish bo'yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Mazkur model qo'yidagi vazifalarni hal qilishni nazarda tutadi:

- ilg'or xorijiy tajribalarni tadqiq qilish;
- hududda DXSH mexanizmini joriy qilishning iqtisodiy imkoniyatlari va shart — sharoitlarini o'rganish;
- mamlakatda sohaga ta'lluqli bo'lgan me'yoriy — huquqiy bazani izohlash va o'rganish;
- DXSH mexanizmi shakllanishining tamoyillarini ishlab chiqish va asoslash;
- DXSH loyihalarini realizatsiya qilish mexanizmini ishlab chiqish;
- DXShni joriy qilishning ustuvor sohalari va tarmoqlarini aniqlash;
- respublikaning rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib, uning amaliyotida DXShni qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Xulosa va takliflar: Ta'kidlash kerakki, DXSH rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini asoslash orqali, biz tomonimizdan, tavsiyalarni DXSH sohasida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning mavjud amaliyoti hamda davlat va xususiy sektorning strategik hamkorligi bo'yicha ustuvorliklar va imkoniyatlardan foydalanish maqsadida ekspertlar tomonidan konstruktiv yondashuv asosida ishlab chiqildi. Ovqatlanish xizmatlari sohasida DXSH rivojlantirish bo'yicha taklif qilinayotgan tavsiyalar quyidagilardan iborat:

1. Ovqatlanish xizmatlari sohasida DXShni amalga oshirish bo'yicha qonunchilik tizimida davlat-xususiy sherikligi tamoyillarini kengaytirish, ya'ni transversallik tamoyilini kiritish, ijro hokimiyati organlarining vakolatlarini aniqlashtirish, loyihani tanlash bo'yicha

tender va tanlov komissiyalariga uzatish, loyiha kompaniyalarining rolini oshirish, me'yoriy — huquqiy bazani takomillashtirish zarur. Xususiy hamkor uchun DXSH loyihalarini realizatsiya qilishda kafolatlar tizimini yetarlicha asoslash, xususiy hamkorni huquqiy jihatdan himoyalash tizimini joriy etish lozim.

2. Ovqatlanish xizmatlari sohasida DXShni rivojlantirish jamg'armasini ham davlat budjet mablag'lari, ham xususiy sektor (donor) mablag'lari hisobidan tashkil qilish.

3. Respublika iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib, rahbariyat tomonidan ovqatlanish xizmatlari sohasida DXSH shakllari va modellarini amalda joriy qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

4. Barcha darajalarda davlat hokimiyat organlari tomonidan ovqatlanish xizmatlari sohasida DXSH loyihalarining ma'lumotlar bazasini shakllantirish va umumdavlat, hududiy va mahalliy darajalarda ularni ajratish bilan DXShning potensial loyihalari ma'lumotlari bazasini yaratish lozimligi.

5. Ovqatlanish xizmatlari sohasida DXSH mexanizmini amalga oshirish uchun kadrlar tayyorlash. Respublika darajasida magistratura mutaxassisligi doirasida DXSH uchun kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish. Shunga mos o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqish hamda ijro hokimiyati organlari xodimlari, xususiy biznes vakillarini va boshqaraga kadrlar tayyorlash zarur.

6. Ovqatlanish xizmatlari sohasida DXSH mexanizmi joriy qilish uchun media — rejani ishlab chiqish va realizatsiya qilish. DXShni amalga oshirish konsepsiyasidan kelib chiqib, DXSH loyihalarini istiqbolda muvoffaqiyatli realizatsiya qilish jamoatchilik tomonidan mazkur konsepsiyani qanday qabul qilishga bog'liqdir. Shuning uchun DXSH masalalari yuzasidan muntazam ravishda va keng doirada bilim almashishni media-rejada rasmiylashtirish, unda turli xil nashrlar, televideniye va radio eshittirishdagi maqolalar, amaliy ma'lumotlar chop etilish muhim ahamiyatga egadir. Bunda ijtimoiy infratuzilma obyektlari nima uchun xususiy sektor tomonidan boshqarilishi, nega ta'riflarning oshirilishi, xususiy kompaniyalar tomonidan infratuzilma obyektlarini ekspluatatsiya qilinishidan qanday foyda borligi jamoatchilikka aniq tushuntirilishi kerak.

7. Ovqatlanish xizmatlari sohasida DXShni realizatsiya qilish yuzasidan tajribalarni almashish maqsadida xorij davlatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish. Axborot va tajriba almashish maqsadida DXSH markazini xorijiy markazlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishning asosiy yo'nalishlari muayyan tadbirlar (forumlar, konferensiyalar, ta'lim dasturlari) o'tkazishda ko'maklashish hamda DXSH masalalari bo'yicha ilmiy aloqalarni o'rnatish, axborot va tajriba almashish aloqalarini o'rnatish hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Keyns Dj. Obshaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. Antologiya ekonomicheskoy klassiki. T. 2. / Per. angl. – M.: Ekonomika, 1992.
2. Makkonell Kembell R., Bryu Stenli L. Ekonomika: Prinsipi, problemi i politika. T. 2. / Per. s angl. -M.: Respublika, 1992. - S. 200.
3. Kukura S P. Teoriya korporativnogo upravleniya/ S P.Kukura - M.: Ekonomika, 2004. - S. 105.
4. www.imepi-eurasia.ru. – S. 3.
5. Romanova O.A. Teoriya i praktika razvitiya chastno-gosudarstvennogo partnerstva/ O.A. Romanova // Vestnik Uralskogo gosudarstvennogo texnicheskogo universiteta. - 2007. - № 3. - S. 41.

6. www.inage.ru/ppp/casestuty/Framework_Paper.ru.
7. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/32_U_Djumaniyazov.pdf
8. <https://lex.uz/ru/docs/4329270>
9. <https://lex.uz/ru/docs/4329270>
10. <https://lex.uz/ru/docs/4329270>
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 12 dekabrda 1009-son «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish to'g'risida»gi Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/4104705>
12. <https://lex.uz/ru/docs/4104705>
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 26 aprelda 259-son «Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi Qarori <https://lex.uz/docs/4798603>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).